

## O'ZBEK TILIDA DIALEKTAL LEKSIKASINING MADANIY KONSEPTLARI VA LINGVOKULTUROLOGIK TAHLILI

**Xusanov Eldorbek Davlatjon o'g'li,**

Qo'qon davlat universiteti

Qo'qon, O'zbekiston

[khusanoveldar@gmail.com](mailto:khusanoveldar@gmail.com)

**Annotatsiya.** Dialektizmlarning tillararo lingvomadaniy tadqiqi zamonaviy tilshunoslikning qiziqarli va shu bilan birgalikda muhim masalalaridan biridir. Har bir tilning o'ziga xosligini anglatuvchi dialektal leksikasi lingvomadaniy jihatdan tadqiq etilsa, xalqlarning madaniyati haqida, ularning tili haqida qanchalik ma'lumotga ega bo'lish mumkin bo'ladi. Albatta, tillarni qiyosiy o'rganish tilshunoslik sohasidagi juda ko'p muammolarni ijobiy hal qilishga imkon beradi. Bunda bir til doirasida yechilmagan masala ikkinchi til materiallari asosida o'z yechimini topadi, chunki kishilarning fikrlash usuli va vositalari, qisqasi, ularning fikrlash tarzi, borliqni his qilish va anglash jarayoni ham har xil kechadi. Ammo qiyoslash ma'lum shart-sharoit, lisoniy qonun-qoidalarga asoslansagina undan ijobiy natija kutish mumkin bo'ladi. Muallif ushbu maqolada turkiy tillar oilasiga mansub bo'lgan o'zbek tilidagi ayrim dialektal leksikalarning lingvomadaniy xususiyatlari haqida fikr yuritgan.

**Kalit so'zlar:** dialektizmlar, adabiy til, sheva koloritini, dialektizm lingvokulturologiyasi, xalq maqollari, badiiy adabiyotlarda sheva koloriti, shimoliy o'zbek shevalari, jargon va argo.

Dialektizmlarning tillararo lingvomadaniy tadqiqi zamonaviy tilshunoslikning qiziqarli va shu bilan birgalikda muhim masalalaridan biridir.

Aytmoqchimizki, har bir tilning o'ziga xosligini anglatuvchi dialektal leksikasi lingvomadaniy jihatdan tadqiq etilsa, xalqlarning madaniyati haqida, ularning tili haqida qanchalik ma'lumotga ega bo'lish mumkin bo'ladi. Albatta, tillarni qiyosiy o'rganish tilshunoslik sohasidagi juda ko'p muammolarni ijobiy hal qilishga imkon beradi. Bunda bir til doirasida yechilmagan masala ikkinchi til materiallari asosida o'z yechimini topadi, [1; 9-10] chunki kishilarning fikrlash usuli va vositalari, qisqasi, ularning fikrlash tarzi, borliqni his qilish va anglash jarayoni ham har xil kechadi. Ammo qiyoslash ma'lum shart-sharoit, lisoniy qonun-qoidalarga asoslansagina undan ijobiy natija kutish mumkin bo'ladi.

To'g'ri, o'zbek tilshunoslik ilmida bu yo'nalishda, ya'ni til birliklarining lingvomadaniy jihatdan tahlili masalasi bo'yicha qator ishlar olib borilmoqda. Masalan, o'zbek tilshunosligida lingvomadaniyatshunoslikning ilmiy asoslanishi, madaniyatning tilda aks etishi kabi qator masalalarga qaratilgan dastlabki ishlar sifatida A.Nurmonovning "O'zbek tilida lingvokulturologik yo'nalish", N.Mahmudovning "Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab", yana ularning "O'xshatishlar – obrazli tafakkur maxsuli", N.Sayidrahimovanning "Lingvokulturologiyaning ilmiy asoslanishiga doir ayrim mulohazalar",

“Lingvokulturologiyaning komponentlari” nomli maqolalarini, D.Xudoyberganovaning “Matnning antroposentrik tadqiqi” mavzusidagi monografiyasi kabi jiddiy tadqiqotlarni qayd etish lozim.

Tilning yaratuvchisi bilan uni uyg'unlikda tahlil qilinishi, aniqrog'i, shaxsga e'tiborning qaratilishi dastlab psixolingvistika va pragmalingvistika yo'nalishdagi tadqiqotlarda ko'zga tashlangan bo'lsa, bugungi kunda shiddat bilan rivojlanayotgan kognitiv tilshunoslik, funksionalizm, etnolingvistika, lingvokulturologiya, diskursiv tahlil kabi sohalar ushbu masalani tilshunoslikning markaziy muammolaridan biriga aylantirdi. [2; 5]

Tilshunos N. Mahmudov o'zining “Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab...” nomli maqolasida “til” va “madaniyat” tushunchalari haqida quyidagilarni yozadi: “Til va madaniyat deganda, ko'pincha, “nutq madaniyati” deyiladigan muammo assotsiativ holda esga tushsa-da, bu ikki o'rindagi madaniyatning aynanligini aslo ko'rsatmaydi. Til va madaniyat deganda, odatda, til orqali u yoki bu madaniyatni yoki aksincha, madaniyatni o'rganish orqali u yoki bu tilni tushuntirish nazarda tutiladi, aniqroq aytadigan bo'lsak, lingvokulturologiyadagi madaniyatning ma'nosi kishilik jamiyatining ishlab chiqarish, ijtimoiy va ma'naviy-ma'rifiy hayotida qo'lga kiritgan yutuqlari majmuyi demakdir”. [3; 10]

N. Mahmudov tilga alohida ehtirom ko'rsatish va unga e'tibor berishni ta'kidlab, yana quyidagilarni yozadi: “Til benihoya muqaddas va mo'tabar ne'mat, u odam degan mavjudot uchun shakllantirilgan, qavmlar o'laroq birlashtirgan, taraqqiyot bosqichlariga olib chiqqan, ruhiy takomilga boshlagan, tafakkur gulshanining darvozalarini ochgan bemisl bir robitadir. Shuning uchun ham tilga nopisandlik insoniyatning o'zligiga nopisandlik demkdir. Tilga ehtirom va e'tibor esa bu dunyoda inson bolasi muhtamligining e'tirofidir”. [4; 3]

Sh. Safarovning ta'kidlashicha, har bir shaxsning lisoniy qobiliyati va muloqot malakasi ma'lum madaniyat hududida, madaniy muhitda shakllanadi va faollashadi. [5: 65]

Tilshunos olim D. Xudoyberganova lingvokulturologiyaga quyidagicha ta'rif bergan: lingvokulyurologiya (lot. lingua – til + lot. cultura – ishlov berish + grek. logia – ta'limot) tilshunoslik, etnografiya, psixolingvistika sohalar hamkorligida yuzaga kelgan, tilning madaniyat, etnos, milliy mentallik bilan o'zaro aloqasi va ta'sirini antroposentrik paradigma tamoyillari asosida o'rganuvchi fan deya ta'riflaydi. [6; 26] Bu borada, ta'kidlaganimizdek, o'zining “Matnning antroposentrik tadqiqi”deb nomlangan monografiyasini yaratdi. U o'zbek tilidagi matnlarning lingvokulturologik xususiyatlarini o'rganishni ochib berdi. Unda pretsedent birliklar va lingvomadaniy birliklarning matn yaratilishidagi o'rni, o'xshatish mazmunli matnlar, metaforalarning matn yaratilishidagi jonlantirish asosida matnlarning lingvokulturologik xususiyatlariga alohida e'tibor berdi. [2] Demak, tilning madaniylik jihati bilan bog'liq paydo bo'lishi ham, rivoj topishi ham, muayyan davrda bajaradigan vazigasi ham, til jamoasining etnik qatlamlarga munosabati ham, qardosh va qardosh bo'lmagani boshqa tillar bilan munosabati ham

va boshqa- boshqalar tilning ijtimoiyligiga, ya'ni lingvomadaniy tomonlariga daxldor bo'lgan masala ekanligidir.

Ma'lumki, har qanday tildagi dialektizmlar qatlami dastlab milliy tilning asosini yaratishda eng muhim manba bo'lib xizmat qiladi, keyin esa ularning tadrijiy rivojlanishi millatning etnik madaniyatini yuzaga keltiradi, Ayniqsa bunday so'zlar badiiy adabiyotlarda sheva koloritini, aniqrog'i, biror bir etnik xalqning o'ziga xos qadriyatini, madaniyatini ifodalashga juda qo'l keladi. yurtimizda siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy, savdo-sotiq va turizm aloqalariga bo'lgan e'tiborning kuchayishi, respublikamizning dunyo hamjamiyatida nufuzi oshishida, xorijdagi mamlakatlar bilan o'zaro munosabatlarning kengayishiga sabab bo'lmoqda. Bu esa, albatta, til va madaniy aloqalarda ham o'z ifodasini topadi.

Bu toifaga aksariyat hollarda qarindosh- urug'chilikka oid so'zlarni kiritish mumkin: **kelin oyi** ~ гэлън быйъ ~ galin biji, **tog'a** ~ нагачь ~ nayac'i, **oyi** ~ эчэ ~ aca, pochcha ~ дамад ~ damad. Shuningdek, boshqa tildan o'zlashgan so'zlarning shevada ko'chma ma'no kasb etishi ham muayyan shevaga bir muncha ta'sir etadi: **вэдж** ~ vaz - javob so'z, gap (aslida vaj - bahona), **jam** ~ zat - narsa, predmet (aslida kelib chiqish ma'nosida), **кэсэ** ~ kasa - piyola (aslida kosa ovqat qo'yiladigan idish) va h.o.

Bundan tashqari, tilimiz shevalarida shunday bir kuchli fonetik o'zgarishga uchragan so'zlar borki, ularning har birida o'zga bir rang-baranglikni ko'rish mumkin: tashqi ~ **дыиан** ~ **dbishan** (Xorazm), tuproq ~ **йорпак**, ~ **yopraq** (shim. o'zb. sh.), qirq ~ **цъх** ~ **qbх**, obkash ~ **ейнагаш** ~ **ejnayas**, aqalli ~ **ашал** ~ **aqqal**, тахт, **тайёр** ~ **тац** ~ **taq** (qirchoq), гилоф ~ **гълп** ~ **y'lp** (shim. o'zb. sh.) va boshqalar.

Shevalardagi so'zlarning o'ziga xos **lingvomadaniy ma'no munosabatlari**ni quyidagicha guruhlashtirish mumkin:

**a)** ayni bir predmet va tushunchalar shevalarda turli so'zlar bilan yuritiladi va natijada shu hududning aynan etnosiga borib taqaladi: чзцэлэ: ~ caqala: (Toshkent) // бувэк ~ buvak (Fargona) II! бала ~ bala (shim. o'zb.sh.); тухум ~ tuxum (Toshkent) // мэйэк ~ majak (qirchoq) II йъмърта ~ jimirta (Xorazm); огър ~ oyir (Toshkent) // кэль ~ kali (shim.o'zb.sh.) // сок,ъ ~ so.qi (Xorazm); чумоль ~ sumali (Toshkent) // морчэ ~ morca (Samarqand) - царьнджа ~ qarinja (Xorazm); чорчэй ~ corcaj (Toshkent) II мэтэл ~ matal (Samarqand) // ертэй ~ ertaj (Xorazm).

**b)** ayni bir so'z shevalarda turlicha ma'noga ega bo'ladi: шоті ~ sati - Toshkentda arava qismi nomi, Farg'onada narvon; byvb ~ buvi - Toshkentda ota va onaning onasi, Farg'onada ona ma'nosida. пэшшэ ~ pashsha - Toshkentda chaqmaydigan hashorat, Farg'ona va shimoliy o'zbek shevalarida chaqadigan hashorat.

**d)** narsa va buyumlar ayni bir vazifani bajarsa-da, ularning nimadan yasalganligi va harakat natijasiga ko'ra ular turlicha lingvomadaniy tomohdan nomlanishi mumkin: нонпэр ~ nanopar. U qush va parranda patidan yasaladi (Samarqand); чэкьч ~ cakic. U yog'och va simdan yasalib, urish, yasash ma'nosini ifoda qiladi (Toshkent); ду/сь ~ dtiki. U duk-duk taqlidiy so'zidan olingan

(shim.o'zb.shev). Shuningdek, ayrim so'zlar sheva vakillarining ayni bir predmetni ifodalashda turli tushunchalardan kelib chiqishlari asosida nomlangan boiishi mumkin. Masalan, туйнэк ~ ttijnak (shim.o'zb.shev.) / ду:йнэк ~ dii.nak (Xorazm.) // сапча/чапча ~ sapca/capcha (qipchoq) so'zlari endigina palakda paydo boigan, pishmagan qovunni bildiradi. Туйнэк/ду:йнэк~ ttijnak/dii.nak so'zi tugmoq tushunchasidan kelib chiqqan, сапча/чапча ~ sapca/capca esa sop, ushlash mumkin bo'lgan predmet tushunchasi bilan bogliq. Har bir shevaning o'ziga xos so'zlari bo'ladi. Masalan, shimoliy o'zbek shevalarida джай ~ zaj (asta), туцултърув ~ turiultiruv (asabga tegmoq), бетэн ~ botan (boshqa); qipchoq lahjasi shevalarida съйац ~ sijaq (ko'rinishi), ърац ~ irarj (epidemiya); o'g'uz lahjasi shevalarida мэцэмж ~ maqzamak (o'xshamoq), атьз ~ atiz (ekin maydoni) kabi. O'zbek shevalaridagi barcha leksik o'ziga xosliklami o'rganish lug'at boyligimizni, til imkoniyatlarimizni kengaytirishimizga yordam beradi va shuning bilan birga ular ma'lum bir narsaga turlicha munosabatni ifodasi uchun ham zarur.

Yuqorida aytilganidek, o'zbek shevalariga xos so'zlarni jargon va argolardan farqlash lozim, dialektal so'zlar barcha sheva vakillari uchun tushunarli bo'ladi. Jargonlar va argolar esa dialektal xarakterga ega bo'lmaydi, balki ma'lum ijtimoiy guruh yoki bir toifa kishilar uchungina tushunarli bo'ladi. Masalan, savdogarlar tilida **dollar** o'mida **ko'ki**, yallachilar tilida **to'y** o'rnida **otar**, **pul** o'rmida **yakan** so'zi qo'llanadiki, ular ijtimoiy leksikagaga oiddir.

Toshkentda (**oyi**) o'rnida **opa** so'zining qo'llanishi aslida qozoq tili va qipchoq-qurama tip shevalarning ta'siri bo'lsa-da, hozirda ijtimoiy ma'no kasb etib qoldi. Onda-sonda bo'lsa-da, ayrim oilalarda **onani "opa"**, **"mama"**, **buvini "oyi"** deyish shundandir (chog'ishtiring: chimkentlik o'zbeklarda **"oyi"** **buvi** demakdir). Masalan, ayniqsa, nevarali oilalarda onani **"oyi"**, **buvini "buvi"** deyish kishini "qaritib" qo'yadi, shuning uchun ayrim buvilar nevarasiga o'zini **"oyi"** deb, xususan, yosh oilalarda ona(oyi)sini **"opa"** deb atashni o'rgatishadi. Yosh oila boshliqlarining kattalar oldida o'z bolasini **"o'g'lim"**, **"o'lim"** yoki **"qizim"** deb aytishga uyalishi, ota-onalarning kimni **"ota"** yoki **"dada"**, kimni **"oyi"** yoki **"opa"** deb aytishga o'rgatishi kabi odatlarni ibtidoiy jamiyat davri bilan bog'lash, bizningcha, o'rinsiz. Biz bunday hodisalar so'nggi davrlar mahsuli, kishilarning ma'naviy-madaniy saviyasi o'zgarishi bilan bog'liq deb hisoblaymiz.

Bizning aniqlashimizcha, qozoq, qoraqalpoq tilida so'zlashuvchi ayrim oilalarda, shuningdek qipchoq tip o'zbek shevalari vakillari **aka (ota)** o'rnida ruscha **"papa"**, **ona** o'rnida **"mama"** so'zlarini qo'llash uchraydi. Misollarga e'tibor bering: "Mamamning mamasi- **apa"**, papamning papasi-**ata"**. Bularda papa qaynata, mama qaynana ma'nolarini ham ifodalaydi. Biz papa so'zini Toshkent shahrining sobiq Lunacharskoe markazida bobosi bilan birga yashovchi ba'zi o'zbek oilalarida papa shaklida uchratsak, mama esa shaharning boshqa joylaridagi o'zbek oilalarida ham uchrab turadi. Bunga o'xshash hodisani turkistonlik o'zbeklar nutqida ham uchratamiz: bizlar **atesti aka** deymis. [7] Jurnalist To'lqin Eshbekning quyidagi so'zlariga diqqat qiling: "Uch yil burun toshkentlik Ernazar ismli o'rtog'imnikiga ta'ziyaga bordim. Onaizoridan judo bulgan bu yigit uyalmay-netmay "Mamam-ey,

mamam!” deb yig‘layapti... O’sha marosimda juda ko‘pchilikning ensasi qotgandi”. Ko‘rinadiki, o‘zbek shevalaridagi bu jihatlar shunchalik rang-barangki, xuddi boshqa-boshqa til egalarining bir tushunchaga turlicha munosabatda bo‘layotganligi kabi, aslida ular bir tilning, millatning madaniy etnosidir.

E’tiboringizni yana bir narsaga qaratmoqchiman, -lar ko‘plik, ya’ni otning grammatik qo‘shimchasi haqida. -lar qo‘shimchasining uslubiy ma’nolaridan biri uning hurmat ma’nosini ifodalashidir. Aynan shu ma’no tilimizning boy imkoniyatlarini ko‘rsatishga xizmat qiladi. Biroq, ming afsuski, bu imkoniyat faqat og‘zaki tilimizdagina mavjud, aniqrog‘i, qipchoq va ayrim qarluq lahjalari shevasi doirasida. Bizningcha, bunday imkoniyat allaqachon adabiy til normamizga aylanishi kerak edi. Birinchidan, hech bir tilda bu imkoniyat yo‘q, ikkinchidan, inson konseptini boshqa yaratilardan tiniq va aniq tasvirlaydi, uchinchidan, kishiga xush yoqadi ba so‘zlayotgan shaxsning madaniyatli ekahligini aniq ko‘rsatib turadi. **Men** olmoshini **Man** olmoshiga (adabiy tilning og‘zaki ko‘rinish nazarda tutilmoqda) almashtirish vaqti ham keldi, chunki bugungi yangi jamiyat kishisining nutq madaniyati shuni talab qiladi. **Men** emas **Manning** talaffuzi jarangdorroq.

Ayniqsa, dialektizmlardagi milliylikni ifodalashda xalq maqollari juda qo‘l keladi. Bunda qora olingan so‘zlar sheva xos so‘zlar bo‘lib, ular bevosita muallif tomonidan Farg‘ona viloyati Bag‘dod tumanidagi keksa avlod tilidan yozib olingan.

#### **Farg‘ona viloyati tumanlari lahjalarida uchraydigan maqollar**

**1. Adabiy matn:** Tashlandiqqa tosh tegmas.

**Farg‘ona shevasida:** *Tashlandiqqa it boqmas.*

**2. Adabiy matn:** Ayagan ko‘zga cho‘p kirar.

**Farg‘ona shevasida:** *Ayagan ko‘zga xas kirar.*

**3. Adabiy matn:** Gadoy arazlasa to‘rvasiga ziyon.

**Farg‘ona shevasida:** *Gadoy arazlasa, xaltasiga ziyon*

**4. Adabiy matn:** Lo‘lining eshagini sug‘orib, pulini ol

**Farg‘ona shevasida:** *Lo‘lining xachirini sug‘orib, pulini ol*

**5. Adabiy matn:** Tentakka teng kelsang, terak bo‘yi sakraydi.

**Farg‘ona shevasida:** *Tentakka teng kelsang, terak bo‘yi sapchiydi*

**6. Adabiy matn:** Yaxshi gap bilan ilon inidan chiqar,

Yomon gap bilan musulmon dinidan chiqar.

**Farg‘ona shevasida:** *Yaxshi gap bilan yilon uyidan chiqar,*

*Yomon gap bilan pichoq qinidan.*

**7. Adabiy matn:** Onasiz yetim tul yetim, Otasiz yetim gul yetim.

**Farg‘ona shevasida:** *Otasiz yetim- gul yetim, Enasiz yetim-chin yetim.*

**8. Adabiy matn:** „Hayt” desa it yugurdi, Itdan oldin qiz yugurdi.

**Farg‘ona shevasida:** *Het desa, it yugurdi, undan oldin qiz yugurdi.*

**9. Adabiy matn** Otangni onangga pardozsiz ko‘rsatma.

**Farg‘ona shevasida:** *Otangga onangni bepardoz ko‘rsatma.*

**10. Adabiy matn:** Maqtanganning uyiga bor, Kerilganning to‘yiga.

**Farg‘ona shevasida:** *Kerilganni uyiga bor, Kekkayganni to‘yiga bor.*

**11. Adabiy matn:** Tuyaning yuki yengil bo'lsa, ishi yotish bo'ladi.

**Farg'ona shevasida:** *Tuyaning yuki yengil bo'lsa, ishi yotoq bo'пти*

Ko'rinadiki, dialektizmlar nafaqat so'z shaklida, balki maqol ko'rinishida ham dialektal leksikada, ham adabiy til ko'rinishida yashab kelmoqda, aniqrog'i, ko'pgina maqollarning adabiy tilda mavjudligini ta'minlaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Mamatov A. O'zbek tili leksikografiyasidan materiallar. – Toshkent: 2009.
2. Xudoyberganova D. Matnning antroposentrik tadqiqi. – Toshkent: “Fan” nashriyoti, 2013.
3. Махмудов Н. Тилнинг мукаммал тадқиқи йўллари ни излаб...// Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент: 2012. - № 5 – 10 б.
4. Махмудов Н. Тил. – Тошкент: Ёзувчи, 1998 – 3 б.
5. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. - Jizzax: Sangzor, 2006. – 65 b.
6. Худойбергано ва Д. Лингвокультура олгия терминларининг қисқача изоҳли луғати. – Т.: Турон замин зиё, 2015 – 26 б.
7. O'zbek xalq shevalari lug'ati. – Toshkent: Fan, 1971.